

**INGLIZ TILI FANIDAN IQTIDORLI O'QUVCHILAR TO'GARAGI
FAOLIYATI - "INGLIZ TILI BILIMDONLARI-KELAJAK EGALARI"**

*Muallif: Sobirova Intizor
Navoiy shahar 15-IDUM
ingliz tili fani o'qituvchisi*

Annotatsiya

Mazkur maqolada 2- va 4-sinf o'quvchilari uchun tashkil etilgan ingliz tili fanidan iqtidorli o'quvchilar to'garagi faoliyati haqida so'z yuritiladi. To'garak mashg'ulotlarida qo'llanilgan interfaol metodlar, kreativ yondashuvlar hamda o'quvchilarning "Al-Xorazmiy Izdoshlari" fan olimpiadasidagi ishtiroki va erishgan natijalari yoritilgan hamda ELO-Junior 2026 "Xalqaro Ingliz tili" olimpiadasida o'quvchilarning erishgan natijalari yoritilgan. Shuningdek, yosh o'quvchilarning ingliz tilini o'rganishga bo'lgan qiziqishini oshirish va ularning bilim salohiyatini rivojlantirishning ahamiyati bayon etilgan.

Kalit so'zlar: Ingliz tili, iqtidorli o'quvchilar, fan to'garagi, olimpiada, interfaol metodlar, kreativ yondashuv, boshlang'ich ta'lim, bilim, yutuq.

Kirish

Bugungi kunda ta'lim tizimida xorijiy tillarni, ayniqsa ingliz tilini o'qitishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Boshlang'ich sinf o'quvchilarida til o'rganishga bo'lgan qiziqishni shakllantirish, ularning bilim va salohiyatini rivojlantirish zamonaviy ta'limning muhim vazifalaridan biri hisoblanadi. Shu sababli maktablarda fan to'garaklarini tashkil etish orqali o'quvchilarning bo'sh vaqtini mazmunli tashkil qilish va ularni turli tanlov hamda olimpiadalarga tayyorlash muhim ahamiyat kasb etmoqda. Ana shu maqsadda 2- va 4-sinf o'quvchilari uchun ingliz tili fanidan iqtidorli o'quvchilar to'garagi tashkil etildi. To'garak mashg'ulotlari davomida o'quvchilarning ingliz tiliga bo'lgan qiziqishini oshirish, ularning erkin fikrlash, muloqot qilish va mustaqil ishlash ko'nikmalarini rivojlantirishga qaratilgan samarali ishlar olib borildi.

Asosiy qism

To'garak mashg'ulotlarida zamonaviy pedagogik texnologiyalar, interfaol metodlar va kreativ yondashuvlardan keng foydalanildi. O'quvchilar bilan turli didaktik o'yinlar, ingliz tilidagi savol-javoblar, rolli o'yinlar, guruhli ishlash faoliyatlari hamda mantiqiy topshiriqlar tashkil etildi. Misol uchun, "Running dictation", "Flyswatter Game", "Four Corners", "Mystery Box" nomli o'yin va mashg'ulotlar olib borildi. Bu esa o'quvchilarning darslarga bo'lgan qiziqishini yanada oshirib, ularning bilim olishga bo'lgan intilishini kuchaytirdi. Mashg'ulotlar davomida o'quvchilarning tinglab tushunish, o'qish, yozish va gapirish ko'nikmalarini

rivojlantirishga alohida e'tibor qaratildi. Ayniqsa, kichik yoshdagi o'quvchilar uchun qiziqarli va interfaol usullardan foydalanish yaxshi natijalar berdi.

To'garak a'zolari o'z bilim va salohiyatlarini "Al-Xorazmiy Izdoshlari" nomidagi fan olimpiadasida ham namoyon etdilar. Olimpiadaga tayyorgarlik jarayonida o'quvchilar bilan grammatik mavzularni takrorlash, lug'at boyligini oshirish, test topshiriqlarini bajarish va mantiqiy fikrlashni rivojlantirish bo'yicha mashg'ulotlar olib borildi.

Olimpiada natijalariga ko'ra 4-A sinf o'quvchisi Toshtemirova Jasmina ingliz tili fanidan faxrli II-o'rinni egalladi. Bundan tashqari, 4-A sinf o'quvchisi Tursunov Boburshoh, 2-B sinf o'quvchisi G'ulomov Sarvar, 4-B sinf o'quvchisi Ismatova Zulfina, 2-B sinf o'quvchisi Ixtiyorova Jasmina, 4-D sinf o'quvchisi Muhammadiyeva Zarina kabi o'quvchilar ham muvaffaqiyatli ishtirok etib, keyingi bosqichlarga yo'llanmani qo'lga kiritdilar. Bundan tashqari, 4-F sinf o'quvchisi Hamroyeva Mohnigor Jizzax viloyati Zomin tumanida bo'lib o'tgan Ingliz tili Olimpiadasida faxrli 1-o'rinni egalladi. Shuningdek, Navoiy shahar 15-IDUM da ELO-Junior 2026 "Xalqaro Ingliz tili olimpiadasi" uchun maktab saralash bosqichi bo'lib o'tdi. Ushbu saralash bosqichida 4-A sinf o'quvchilari Izzatullayeva Sabrina, Avulov Said, 4-D sinf o'quvchilari Ibragimov Amriddin, Ubaydullayev Javlon, 3-B sinf o'quvchisi Nabijonov Mustafo shahar bosqichida ishtirok etishni qo'lga kiritdilar. 2026-yil 26-yanvar kuni Navoiy shahri 23-maktabda ELO-Junior 2026 Xalqaro Ingliz tili Olimpiadasining shahar bosqichi bo'lib o'tdi. Unga ko'ra, maktab o'quvchilari Innovatsion yangilik yaratish bo'yicha o'z g'oyalarini hamda ilovalarini namoyish etishdi hamda Navoiy shahar 15-IDUM o'quvchilar jamoasi ELO-Junior 2026 Xalqaro Ingliz tili Olimpiadasi shahar bosqichida faxrli 3-o'rinni qo'lga kiritdilar.

Ushbu natijalar o'quvchilarning bilimga bo'lgan intilishi va muntazam tayyorgarlik samarasi ekanligini ko'rsatadi. Shuningdek, o'quvchilar turli ingliz tili olimpiadalari va tanlovlarida faol qatnashib, diplom hamda sertifikatlar bilan taqdirlanmoqdalar. Bu esa ularning o'ziga bo'lgan ishonchini oshirib, yanada yuqori marralarni egallashga undamoqda.

Xulosa

Xulosa qilib aytganda, 2- va 4-sinf o'quvchilari uchun tashkil etilgan ingliz tili fan to'garagi yoshlarning bilim va iqtidorini rivojlantirishda muhim o'rin tutmoqda. To'garak mashg'ulotlarida qo'llanilgan interfaol metodlar va kreativ yondashuvlar o'quvchilarning ingliz tiliga bo'lgan qiziqishini oshirish bilan birga, ularning olimpiadalarda muvaffaqiyatli ishtirok etishiga ham xizmat qilmoqda. Kelgusida ham o'quvchilar bilan samarali ishlarni davom ettirish, ularning bilim salohiyatini yanada rivojlantirish hamda yangi yutuqlarga erishish asosiy maqsadlardan biri bo'lib qoladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining xorijiy tillarni o'qitishni rivojlantirishga

oid qarorlari va farmonlari.

2. O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi tomonidan tasdiqlangan ingliz tili fan dasturi.

3. Jalolov J. J. “Chet til o‘qitish metodikasi”. — Toshkent: O‘qituvchi, 2012.

Bekmuratova U. “Ingliz tilini o‘qitishda interfaol metodlardan foydalanish”. — Toshkent, 2018.

4. Harmer J. “The Practice of English Language Teaching”. — Pearson Education Limited, 2007.

5. Scrivener J. “Learning Teaching”. — Macmillan Education, 2011.

6. Phillips S. “Young Learners”. — Oxford University Press, 2003.

7. Pinter A. “Teaching Young Language Learners”. — Oxford University Press, 2006.

8. Cambridge Primary English Learner’s Book.

